



2023  
9-IYUL

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI SAYLOVI

# KELAJAGINGIZ UCHUN OVOZ BERING!

Ovoz berish soat 8:00 dan 20:00 ga qadar o'tkaziladi



# Zarafshon

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 8-iyul, shanba,  
81 (23.802)-son

**KUN  
HIKMATI**

Odamlarni  
yaxshi ko'rmasdan  
ularga halol  
xizmat qilishning  
iloji yo'q

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



## Suv sarfini kamaytirishda shveysarxa usuldan foydalanamiz

**Mamlakatimizda mehmon bo'lib turgan Shveysariya tashqi ishlar vaziri Inyatsio Kassis boshchiligidagi delegatsiya viloyatimizda suvdan oqilona foydalanish borasidagi ishlar bilan tanishdi.**

Xususan, Zafarshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi" doirasida suv sektorini raqamlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar taqdimoti o'tkazildi.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda iqlim o'zgarishlari natijasida daryo havzasidagi qor qoplami va muzliklarning maydoni qisqarmoqda. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi besh yil davomida Zarafshon daryosining yillik suv oqimi hajmi 15 foizgacha kamaygan. Suv resurslari yildan-yilga kamayib borayotgan sharoitda suv sektorini, xususan, suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanishni tashkil qilish ishlarini raqamlashtirish orqali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois bugungi kunda yurtimizda elektron hukumatning milliy maqsadlari doirasida ilg'or texnologik yutuqlardan foydalangan tarzda suv xo'jaligi faoliyatini raqamlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish institutlarini kuchaytirish, sohada innovatsion axborot-kommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash va suvdan foydalanishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bunda Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi" muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Loyiha doirasida mamlakatimizdagi 155 tuman irrigatsiya bo'limlari ofislari ta'mirlanib, zarur uskunalar va jihozlar bilan ta'minlandi. Xodimlar ushbu uskunalar va kompyuter dasturlaridan foydalanish bo'yicha o'qitildi.

Yer yuzidagi iqlim o'zgarishi va aholi sonining oshishi, shuningdek, geosiyosiy tortishuvlar ta'sirida transchegaraviy daryolardan foydalanishdagi nomuvofiqliklar sabab suv resurslari bilan bog'liq muammolar yildan yilga ko'payib bormoqda, — deydi Shveysariya tashqi ishlar vaziri Inyatsio Kassis. — Xususan, Markaziy Osiyodagi

eng murakkab muammolardan biri suv resurslari bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Bunda transchegaraviy daryolardan foydalanish borasida yuzaga kelayotgan muammolar daryo oqimining quyi qismidagi davlatlar uchun katta qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Shuning uchun mintaqadagi barcha davlatlar o'zaro hamkorlikda, transchegaraviy daryolardan tartibli foydalanishi zarur. Suv resurslaridan foydalanishda samaradorlikni oshirib, suv sarfini kamaytirish kerak. Jarayonda aholining suv resurslariga bo'lgan munosabatini o'zgartirish ham muammo yechimida muhim. Aynan bunday murakkab vaziyatda Shveysariyada sinovdan o'tgan nazariy va amaliy tajribalarni amaliyotga tatbiq etgan holda ijobiy yechim topish maqsadidamiz. Albatta, vaziyat ancha murakkab, ammo yechim topish mumkin. Yechim hamjihatlik va tartibda. Eng muhimi, bu muammo mintaqadagi barqarorlikka ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

— Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi 36 milliondan oshdi va aholi jon boshiga suv sarfi 1500 metr kubdan to'g'ri kelmoqda, — dedi O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari Rustam Qarshiyev. — Shuningdek, 64 milliard metr kub suvimiz 51 milliard metr kubgacha kamaydi. Ushbu murakkab vaziyatni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan suv xo'jaligini rivojlantirish, suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi" ana shunday samarali ishlardan biri. Ushbu loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlar suv xo'jaligini rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanishni tashkil qilishda ijobiy natijalarni bermoqda. Ayniqsa, zamonaviy tejamkor texnologiyalarni joriy etish, tizimni texnologik yangilash, kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni alohida ta'kidlash lozim. Albatta, o'zaro hamkorligimiz mintaqadagi suv resurslari bilan bog'liq muammolarga yechim topish imkonini beradi.

Shveysariya delegatsiyasi Zarafshon daryosidagi Oq-Qoradaryo gidrotexnik inshooti va Samarqand tumani irrigatsiya boshqarmasi faoliyatini bilan tanishib, kelgusi vazifalar haqida mutasaddilar bilan fikrlashib oldi.

A.ISROILOV.

## XALQARO KUZATUVCHILAR OKRUG SAYLOV KOMISSIYASIDA

**9-iyul kuni o'tkaziladigan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini kuzatish maqsadida yurtimizga kelgan xalqaro tashkilotlar vakillari, xorijlik mehmonlar viloyatimizda saylovga hozirlik jarayonlari bilan tanishmoqda.**

Jumladan, kecha 7-Samarqand okrug saylov komissiyasiga Rossiya Federatsiyasi Markaziy saylov komissiyasi raisi o'rinbosari Nikolay Bulayev va komissiya a'zolari, Rossiya va tailandlik deputatlar, jurnalistlar kelib, okrug hududida saylovga tayyorgarlik bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

7-Samarqand okrug saylov komissiyasi raisi X.Muhammadiyev xalqaro kuzatuvchilarga mam-

lakatimiz saylov qonunchiligi, muddatidan ilgari o'tkazilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berdi. Uchrashuvlar chog'ida Samarqand viloyatida saylov kampaniyasining borishi, okrug komissiyasi faoliyatini yuzasidan fikrlar bildirildi.

— O'zbekistondagi saylov jarayonlarini birinchi marta kuzatayotgan, — deydi Tailanddagi "Ambas-

sador World Magazine" jurnali bosh direktori Amonvan Ruangatabat xonim. — Saylov kodeksi bilan tanishdim, saylov kampaniyasining borishini kuzatdim. Hammasi qonun doirasida, xalqaro standartlarga mos o'tmoqda. Samarqanddagi okrug komissiyasi faoliyatini to'g'risida ham ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldim. Umuman, Samarqand menga juda yoqdi. Odamlarning kayfiyati juda yuqori. Ular saylovga befarq emas.

Xalqaro kuzatuvchilar viloyatdagi saylov uchashtalarida bo'ldi, tarixiy-madaniy yodgorliklarni tomosha qildi.



## Kattaqo'rg'onliklar nega avtoboshbekatdan ham, avtobuslardan ham norozi?

**Kattaqo'rg'on shahri viloyatimizdagi ikkita katta shahardan biri. Biroq shahardagi avtoboshbekat yo'lovchilarga yetarlicha xizmat ko'rsatmayapti. Avtobuslar Ingichka, Samarqand, Tim, Ag'ron, Mirbozor, Payshanba va Ishtixon tumaniga qatnaydi, xolos.**



— Yo'lovchilar kamligi sababli yo'nalishlarimiz soni ham sanoqli, — deydi avtoboshbekat rahbari Nurali Jo'rayev. — Uzoqqa qatnaydigan avtobuslar ham bir qism yo'lovchilar bilan yo'nalishga chiqib ketishadi, yo'lovchilarning yo'lovchi "terib" boraveradi. Chunki bugungi kunda ko'pchilik taksida qatnashni afzal bilmogda.

Avtoboshbekatning ahvoli ham haminqadar, ko'ngildagidek ta'mirlanmagan. Maskanda navbatchi dis-

petcherlik xizmati tashkil etilmagan. Biror joyda avtobuslar yo'nalishlari jadvali yoki yo'l-kira haqida ma'lumotlarni ko'rmaysiz. Bu yerda yo'lovchilarga ham, haydovchilarga ham umuman shart-sharoitlar yaratilmagan.

Kattaqo'rg'on shahri hokimligi va viloyat transport boshqarmasi mutasaddilari bu holatga e'tibor qarat-salar, yaxshi bo'lardi.

Tohir NORQULOV,  
faxriy fotojurnalist.

**TAYINLOV**



**Nazarov Xurshid Aripovich** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Mazkur tayinlovga qadar X.Nazarov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Samarqand filiali rahbari lavozimida faoliyat olib borgan.

## 15 SOTIX YERDA ISHLAB RO'ZG'OR TEBRATIB BO'LADIMI?

**Ishsizlik muammosi bilan qiynalayotgan yoshlar bandlerini ta'minlash, ularning hayotda o'z yo'lini topishiga ko'maklashish maqsadida zarur choralar-tadbirlar ko'rilyapti.**

- Korruptsiyaning oldini olish maqsadida "auksion" tizimi yo'lga qo'yildi, - degan edi Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev Samarqand shahrida yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvda. - Avvalo, hokimlik tomonidan yerning holati qay darajada ekanligi e'lon qilinishi kerak. Kimda undan unumli foydalanish imkon bo'lsa, shu yerni auksion orqali yutib olishi mumkin. Unga hech kim majburlab berilmaydi. Ko'p eshitaman, ayrim joylarga suv yetib bormasligidan dehqonchilikni boshlagan fuqarolar muamмога duch keldi. Buning turli sabablari bor. Masalani joyiga chiqib o'rganish lozim.

Biz Ishtixon tumanida bo'lib, ishsiz yoshlarga ajratilgan yerdan qay darajada foydalanilayotganini bilan qiziqdik. Tumanning Ko'tarma mahallasida 2022-yilda 54 nafar fuqaroga, jumladan, 42 nafar yoshga 15 sotixdan yer ajratilgan. Bu yil esa 24 nafar ishsizga "E-auksion" platformasi orqali



30 yilga 30 sotixdan yer berilgan. Bu yaxshi albatta, ammo yer turli hududlardan ajratiladi. Har hududning o'ziga yarasha muammolari bor. Ayrim joylarda suv yetishmavchiligi bo'lsa, ba'zi hududlar yeri sho'rlangan.

- To'g'ri, hududlar har xil, ammo yerni fuqaro o'z xohishi bilan oladi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Zohid Abdullayev. - Masalan, Muslim qishlog'ida dehqonchilik qilish bir muncha qiyin. Bunga sabab yerning qiyaligi, ayrim joylarining sho'rli, shuningdek, suv muammosi. Musliimliklar azaldan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Yer olganlarning barchasi ham dehqonchilikni eplab ketolmayapti. Aslida ularga yer majburlab berilmagan. Istasa, boshqa qishloq hududidan ham olishi mumkin edi, ammo ular uyiga yaqin bo'lishini istagan. Ko'tarma qishlog'ida yashaydiganlarning esa ota-bobosi dehqon bo'lgan. Bu hududda ham 5-6 yildan beri oqar suv muammosi edi. Ammo ko'tarmaliklar artezian quduqlari qazdirib, masalaga yechim topgan.

- O'tgan yili maktabni bitirib, o'qishga kirolmadim, - deydi ko'tarmalik Azamat Saydullayev. - Nima qilishni bilmay yuzganimda hokim yordamchisi yer berish taklifini aytdi. Auksion orqali 30 sotix yer yutib oldim. Bu yil birinchi marta dehqonchilik qilishim. Pomidor ekanimzi. 4 qo'shni kelishib, suv chiqardik.

Navbat bilan sug'orib, ekinimizni parvarishlayapmiz. Rivojlanishi yaxshi. Pomidoridan keyin bu yerga turp va sholg'om ekish niyatimiz bor.

Haqiqatdan ham, Muslim qishlog'ida yer olganlarning ayrimlari unumli foydalana olmayotganligi tufayli uni qaytarish choralarini izlayotgan ekan. Buning sababini hokim yordamchisi shunday izohlaydi:

- Guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, musliimliklar orasida boqimandlik kayfiyatidagilar topiladi. To'g'ri, 4-5 kishi yerni qaytarish istagini bildirgan. Nima emish, agar yer ularning nomida bo'lsa, "bola puli" chiqmas ekan. "Bola puli" oyiga 600 ming so'mdan chiqsa, bir yilda 7 million 200 ming so'm bo'ladi. U yerga mehr berib ishlasa, 25-30 million so'mgacha daromad olish mumkin.

Tumanning Chag'atoy mahallasida ham ijtimoiy daftarlarga kiritilgan ishsizlarga yer ajratilgan. O'tgan yili bahor faslida mahallaning Qo'ng'iro't qishlog'ida 28 nafar yoshga 15 sotixdan yer ajratilgan haqida gazetamiz va Zarnews.uz saytida xabar bergan edik. Ular dehqonchilik mavsumi davomida yerdan qay darajada foydalanganini bilan ham qiziqdik.

- Mahallada yoshlar yetakchisi vazifasida ish boshlaganimda o'tkazilgan xatlov natijasida 41 nafar yigit-qizni ishsizlik muammosi qiynayotgani ma'lum bo'ldi, - deydi Rahmatulla Murtozayev. - Ularning 28 nafariga 15 sotixdan yer ajratildi. O'tgan yili bu yerga pomidor va bodring ekib, har biri 10-15 million so'mdan daromad qildi. To'g'ri, bu mablag' bir yil ro'zg'or tebratishga yetmaydi, ammo dehqonchilik qilishdan bo'sh vaqtlarda boshqa yumush bilan ham shug'ullanish mumkin. Mahallamizdagi hokim yordamchisi ularga chorvachilik, asalarichilik va boshqa tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar borligini tushuntiryapti.

- 2019-yilda kollejni tugatib, ishsiz yurgan edim, - deydi Alisher Saydullayev. - "Yoshlar daftari"da ro'yxatga olinganim uchun o'tgan yili bahorda menga 15 sotix yer ajratildi. Pomidor ekdim. Bizga ajratilgan maydon Mitan va Chelak shaharchalarini bog'lovchi katta yo'l yoqasida joylashganligi yetishtirgan mahsulotimizni oson sotishim uchun qo'l keldi. Shu yerning o'zida bir kilogram pomidorni 3,5-5 ming so'mdan pulladim. 10 million so'mdan ziyodroq foyda ko'rdim. Shu pulga 2 bosh qoramol oldim. Ularni 3-4 oy boqib sotdim. Shuning hisobiga to'y qildik. Uylandim. Bu yil ham dehqonchilik qilyapman. Biroz suv muammosini hisobga olmasak, hammasi joyida. Akam uylarni ta'mirlaydigan usta. Bo'sh vaqtlarimda unga yordam beraman.

Hududlarda imkoniyatlar bor, ammo barcha ham undan to'g'ri foydalana olmayapti. Imkoniyatlarga yarasha muammolar yo'q emas, masalaga yechim topishda mas'ullar yoshlarga ko'makdosh bo'lsa, yo'l-yo'riq ko'rsatsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'lqin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## Magnetizm sohasini rivojlantirish xalqaro miqyosda o'rganildi

**Samarqand davlat universitetida "Magnit hodisalar va ko'p funksiyali magnit materiallar" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.**

Muhandislik fizikasi instituti tomonidan tashkil etilgan anjumanda AQSH, Rossiya, Ispaniya, Germaniya, Italiya, Indoneziya, Hindiston, Gretsiya, Gollandiya kabi dunyoning 17 davlatidan 130 dan ziyod olimlar hamda respublikaning 30 dan ortiq tashkilotlaridan 50 dan ortiq mutaxassislar ishtirok etdi.

- Magnetizm sohasi fizikaning muhim va dolzarb tarmoqlaridan, - dedi Moskva davlat universiteti professori Nikolay Perov. - Bugungi konferensiya xorijiy mutaxassislarining jalb qilingani magnetizm sohasining butun dunyo bo'yicha muhim yo'nalishlardan biri ekanini ko'rsatadi. Sohaga oid ilmiy tadqiqotlarga xalqaro nigohda qarash, mamlakatlar o'rtasida mavjud ilmiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, albatta, o'z samarasini beradi. Konferensiya bahona universitetning Muhandislik fizikasi instituti bilan ham tanishdik. Zamonaviy laboratoriya va o'quv xonalari ko'pchilik xorijiy ekspertlarning e'tiborini tortdi.

Bugun universitetda Samarqand magnetizm makta-



bi hamda magnetizm yo'nalishi bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi yagona ilmiy kengash faoliyat yuritadi. Respublika bo'yicha ushbu sohada faoliyat olib borgan mutaxassislarning deyarli barchasi shu maktabda yetishib chiqqan.

Hozirgi paytda magnetizm shunday sohaga aylandiki, unda erishilayotgan har bir yutuq va yangilik to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tatbiq etiladi. Hayotimizning asosiy qismiga aylanib ulgurgan mobil quрилmalar, smartfonlar, flesh xotiralari - hamma-hammasi ushbu sohanning kashfiyotlari tufayli hozirgi darajadagi takomiliga yetgan.

Farrux HAMROYEV,  
Samarqand davlat universiteti matbuot kotibi.

## SamDAQU turk dunyosi universitetlari ittifoqiga qo'shiladi

**Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti faoliyati tubdan takomillashtirilmoqda. Universitetda ta'lim tizimini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari samardorligini oshirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini rivojlantirish maqsadida universitet rektori Chidem Turkiymaz boshchiligidagi delegatsiya a'zolari Turkiyada xizmat safarida bo'lib qaytdi.**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan xizmat safarida universitet rahbariyati va professor-o'qituvchilari Turkiyaning bir qator oliy ta'lim muassasalari hamda tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Jumladan, Yildiz texnika universiteti va universitet texnoparki, Fotix Sulton Mexmed fondi universiteti, Istanbul Kultur universiteti, Gebze texnika universiteti "Turkiy davlatlar tashkiloti"ning bosh ofisi, Tubitakning Marmara ilmiy markazi hamda "Bimtas" Istanbul shahar bosh rejalashtirish markazlarida bo'lishdi.

Xizmat safarida delegatsiya a'zolari Turkiya oliy ta'lim muassasalarining fakultetlari, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun yaratilgan shart-sharoit-

lar, kampsulardagi smart-auditoriyalar va qurilish mollari ishlab chiqarish sohasiga aloqador laboratoriyalar, bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari, shartnomalar, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish ishlari, axborot-resurs markazlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, bir qator kelishuvlar hamda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va mustahkamlashga erishildi.

Jumladan, Fotix Sulton Mexmed fondi universiteti rahbariyati bilan o'quv, ilmiy hamda madaniy sohalarida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish muhokama etildi.

Tubitak Marmara ilmiy markazi laboratoriyalarida o'quv suvlarni tozalashning zamonaviy usullari, issiqlik chidamli materiallarni tayyorlash,

vodoroddan energiya olish maqsadida foydalanish, qurilish materiallari, beton va asfaltbetonning yangi namunalari tayyorlash bo'yicha laboratoriya olimlari bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Shuningdek, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti bilan Turkiyaning Yildiz texnika universiteti va Gebze texnika universitetlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini muhokama qilindi va rektorlar tomonidan ikki tomonlama memorandumlar imzolandi. Ushbu memorandumlar kelajakda universitetlar o'rtasida barcha yo'nalishlardagi samarali hamkorlikni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Delegatsiya a'zolari Istanbul shahri-ning tarixiy va go'zal qismida joylashgan Turkiy davlatlar tashkilotining bosh ofisida ham bo'lishdi. Tashkilot bosh kotibining o'rinbosari Umer Kochaman bilan tashkil etilgan suhbat davomida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilayotganligi, universitetning xalqaro tajribalar asosida transformatsiya qilinishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar kelajakda boshqa oliy ta'lim muassasalariga namuna bo'lishi ta'kidlandi. Muzokarlarda universitet rektori Chidem Turkiylmazning oliy ta'lim muassasasini turk dunyosi universitetlari ittifoqi a'zolariga qabul qilish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Javlon SADIKOV.

## BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra,

**2023-YIL**  
**YANVAR-MAY**  
oylarida viloyat ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi

**552,5**  
**MILLIARD**  
so'mga yetdi.

Ya'ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

**133,4**  
**FOIZ**  
ni tashkil etdi.

## BRUTTO-SHARTNOMASI

**SAMARQAND JAMOAT TRANSPORTIDAGI MUAMMOLARGA YECHIM BO'LADI(MI?)**

- Nega Samarqanda avtobus ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan ikkita korxonaga bo'lsa-da, xorijdan avtobus xarid qilinmoqda?
- Bekatlarda avtobuslarning kutish vaqti qachon tartibga keltiriladi?
- Qaytim qaytarishdagi muammolarga qachon yechim topiladi?
- Samarqand shahrini to'liq jamoat transporti bilan ta'minlash uchun nechta avtobus kerak bo'ladi?

Shu kabi savollarga viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Akobir Ashurov ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumani javob berildi.

Qayd etilishicha, 2023-yilning I choragida Samarqand shahrida jamoat transporti infratuzilmasini tubdan yangilash bo'yicha "SIMMETRA" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bosh reja asosan, shaharda muntazam yo'nalishlarni brutto-shartnomaga o'tkazish bo'yicha tahlil qilib chiqilgan. Shahardagi 10 ta magistrat va 33 ta yetkazib beruvchi yo'nalishlarni bosqichma-bosqich brutto-shartnomaga o'tkazish grafici ishlab chiqilgan. Boshqarma tomonidan brutto-shartnomaga o'tuvchi tashuvchilar tomonidan yo'nalish ko'rsatkichlari bajarilishini monitoring qilish va baholovchi tizimni joriy etish, har bir yo'nalishning boshlang'ich narxini ishlab chiqish va tasdiqlash ishlari olib borilmoqda.

Hozirda Samarqand shahar jamoat transporti uchun Xitoy Xalq Respublikasida ishlab chiqirilgan 75 dona "King-Long" va 20 dona "Aziya-Star" rusumli zamonaviy avtobuslar olib kelindi.

Shuningdek, 2023-2024-yillarda jami 350 ta elektrobus xarid qilish doirasida 10,5 metr uzunlikdagi dastlabki 100 ta elektrobuslar hamda ularni quvvatlantirish moslamalarini xarid qilish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda Xitoy kompaniyasi g'olib bo'lgan. Hozirda dastlabki 6 dona elektrobus Samarqand shahriga keltirilib, yo'lovchilarga xizmat qilayotgan bo'lsa, qolgan 94 ta elektrobus oktabr oyida olib kelinishi rejalashtirilgan.

- Hisob-kitoblarimizga ko'ra, hozirda "Maroqand trans 777" MCHJ tomonidan bir kunda o'rtacha 70 ming yo'lovchi xizmat ko'rsatilmoqda, - deydi boshqarma boshlig'i A.Ashurov. - "Samarqandyo'lovchitrans" davlat korxonasi qarashli elektrobuslarda yo'lovchi tashish aylanmasi bir kunda o'rtacha 3,3 ming kishini tashkil etmoqda. Tramvay bilan birgalikda kuniga 110-120 ming yo'lovchi jamoat transportidan foydalanmoqda.

Vuzirlar Mahkamasining 2021-yil 8-oktyabrda qaratilgan jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida gi qaroriga asosan, shahar atrofida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan yo'lovchi tashishdan ko'rilgan zararlarni mahalliy budget mablag'lari hisobidan qoplash belgilangan. Qaror asosida 2023-yil I yarim yillikda komissiyaga 412,6 ming so'mlik hujjatlar kiritilib, 10,1 ming so'm to'lab berildi. Qolgan 402,5 ming so'm hududiy komissiya tomonidan o'rganilmoqda.

Shuningdek, shaharda yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan tranzaksiya orqali yo'lovchi tashishdan ko'rilgan zararlarni qoplab berish maqsadida komissiyaga 2023-yil I yarim yillik bo'yicha 1 087,2 ming so'mlik hujjatlar kiritildi. Shundan 811 million so'm subsidiya mablag'lari tashuvchi korxonalariga to'lab berildi.

Anjuman ishtirokchilari tomonidan soha mas'ullariga tizimdagi muammolar, to'lovlar, vaqt borasida ko'plab savol va takliflar bildirildi.



Dunyo davlatlarida shaharlardagi tirbandliklarning yechimi sifatida jamoat transportini rivojlantirish tajribasi qo'llaniladi. Bizda esa ko'plab joylarda bekatlar yo'q va avtobuslar yo'lovchi gavgum bo'ladigan joylarda shu yo'nalishdagi keyingi avtobus kelguncha ham turib qoladi. Qaytim qaytarish, haydovchi va pattachinging qo'pol muomalasini aytmasa ham bo'ladi. To'g'ri, yo'l haqini to'lash uchun avtobuslarga validator qurilmasi o'rnatilgan, biroq ularning aksariyati ishlamaydi. Balki bir necha yil avval joriy etilgan jeton tizimini qayta yo'lga qo'yish kerakdir.

- E'tirozlar o'rinni, biroq bularning yechimi uchun vaqt kerak, - deydi A.Ashurov. - Hozirda Samarqand shahridagi bir nechta asosiy ko'chada qurilish-ta'mirlash ishlari ketyapti. Bu ham avtobuslarning vaqtida kelmasligiga sabab bo'ladi. Hozirda Samarqand shahrida yo'lovchi tashish xizmatlari deyarli to'liq tadbirkorlar ixtiyoriga o'tgan. Haydovchidan talab qilinadigan kunlik reja tufayli ular yo'lovchi kutishga majbur bo'lmoqda. 2024-yil 1-yanvardan barcha yo'lovchi tashuvchi korxonalar brutto-shartnomasiga o'tkaziladi va yo'l haqiga qaytim qaytarish, avtobusning vaqtida kelmasligi, yo'lovchi qo'pol muomala qilish kabi masalalarga yechim topiladi. Ya'ni, haydovchi yo'l haqiga bog'lanib qolmaydi. Hozir validator orqali 1400 so'mdan to'langan yo'l haqiga qo'shimcha ravishda har bir yo'lovchi uchun mahalliy budget mablag'laridan 600 so'm subsidiya ajratilmoqda. Tizim to'liq ishga tushgandan keyin avtobuslarning harakatlangan vaqti, ko'rsatgan sifati xizmatini ham inobatga olinib, subsidiya to'lanadi. Hozir yo'llarda harakatlantayotgan eski avtobuslarda hududni to'liq qamrab olish uchun 2 mingdan ortiq avtobus zarur bo'ladi. Bu ekologiya tomonidan ham, iqtisodiy tomondan ham ancha mushkul ish. Shu bois sig'imi katta avtobuslar kerak. Buning yechimi sifatida "Yashil shahar" loyihasi doirasida YTTB mablag'lari hisobidan e'lon qilingan xalqaro tanlovda Xitoy kompaniyalari g'olib bo'lib, arzon va sifatli elektrobuslar yetkazishi belgilandi. Yaqin vaqtda ularni quvvatlantirish stansiyalari shaharda 640 ta bekat qurish rejalashtirilgan.

O'ktam XUDOBBERDIYEV.



## "ICHKI UFQ:"

O'zbekiston 1930-yillarda Ella Mayar suratlarida"

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Shveysariya elchixonasi bilan hamkorlikda "Art station by Silk Road University" galereyasida "Ichki ufq: O'zbekiston 1930-yillarda Ella Mayar suratlarida" deb nomlangan ko'rgazma tashkil etdi. Ko'rgazmada Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qoraqalpog'iston shaharlarining XX asrning 30-yillaridagi tarixidan so'zlovchi fotosuratlar namoyish etildi.

Ushbu suratlar shveysariyalik fotograf, yozuvchi va sayohatchi Ella Mayarga tegishli. Butun hayotini dunyo mamlakatlari va ularning madaniyatlarini o'rganishga bag'ishlagan Ella Mayar Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy va Turkiyaga sayohat qilib, o'ziga xos tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Ko'rgazmada Mayarning 1932-yilda O'zbekiston, Markaziy Osiyo bo'yab yetti oylik sayohati chog'ida olgan fotosuratlarini namoyish etilyapti. Ella Mayarning asl fotosuratlarini arxiv Shveysariyaning Lozanna shahridagi "Photo Elysée - Musée cantonal pour la photographie" muzeyida saqlanadi. Sayohat taassurot-

lari matn va suratlar ko'rinishida sayohatchining "Osmon tog'laridan qizil qumlariga" kitobi-da jamlangan.

- Ushbu ko'rgazma orqali 100 yilga yaqin vaqt oldin Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududidagi turmush tarzi, haqiqiy hayot manzaralarini ko'rish orqali o'sha davr haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin, - deydi Shveysariya tashqi ishlar vaziri Inyatsio Kassiss. - Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan mustahkam diplomatik aloqalarni olib bormoqdamiz. Bunda madaniy aloqalar alohida ahamiyatga ega. Men Samarqandga kelib, shaharning bir qancha diqqatga sazovor joylari bilan tanishdim. Bu o'rinda shuni aytishim kerakki, Ella Mayarni 100 yilga yaqin vaqt oldin bu zaminga chorlagan o'ziga xoslik bugun ham xorijliklarni xuddi shunday o'ziga jalb etmoqda.

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Lozanna-dagi "Yelisey" fotosuratlar muzeyi, Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi, "Ella Mayar va Anneliza Xollmann xonimning do'stlari" uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan ko'rgazmaning ochilish marosimida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining birinchi o'rinbosari Obidjon Quadratov, Shveysariya tashqi ishlar vaziri Inyatsio Kassiss, viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining akademik tadqiqotlar bo'yicha prorektori Raymond Jozef Xofman ishtirok etdi.

Ko'rgazma 8-oktabrgacha davom etadi.

S.MARDIYEV.



## Yeungnam University tadqiqotchi-talabalari "Matbuot uyi" mehmoni bo'ldi

Tadqiqotchi-talabalar dastlab "Samarqand matbuoti tarixi muzeyi"dagi eksponatlarni tomosha qildi. "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari tahririyati bosh muharriri Farmon Toshev va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Akram Haydarov xorijlik talabalarga muzeydagi eksponatlar haqida ma'lumot berdi. Samarqandda dastlabki gazetaning qanday chop etilgani, unda ishlatilgan harf terish mashinkasi va boshqa uskunalar mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Janubiy koreyalik talabalar tahriratning kechagi va bugungi ish jarayoni bilan tanishgach, davra suhbatini tashkil qilindi.

Samarqand davlat universiteti bilan hamkorlikdagi kelishuvga asosan shahrimizga 10 kunlik sayohatga kelgan chet ellik talabalar volontyor sifatida mahalla, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini faoliyati bilan tanishadi. Shuningdek, rejalashtirilgan manzillarda volontyorlik faoliyatini olib boradi.

Xurshida ERNAZAROVA.

## Qoraqalpog'istonlik sayohatchilar Samarqandda

Madaniyat va turizm vazirligining "Sayohat barcha uchun!" ijtimoiy loyihasi doirasida imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yurtdoshlarimiz uchun sayohatlar tashkil etilmoqda.



Ushbu loyiha doirasida 29-iyun kuni 150 nafar qoraqalpog'istonlik hamyurtlarimiz Samarqand shahrida bo'ldi.

- Ushbu sayohat bizda katta taassurot qoldirdi, - deydi Tozagul Esirgopova. - Ko'pdan buyon bu qadim shaharni ko'rish orzusida edim. Qurbon hayiti bayrami kunlari ana shu ziyorat nasib qildi. Samarqand - buyuk insonlar yashab

o'tgan manzil. Ularning so'nggi manzillarini ziyorat qilish kishi ruhini yengillashtiradi, ajdodlar merosidan bahramand bo'lasiz. Keyingi safar farzandlarimni ham olib kelishni niyat qildim. Bu yerda bizga ko'rsatilayotgan e'tibordan mamnunmiz. Mehmonxonada, ovqatlanish, sayohat, barchasi bepul tashkil etilgan.

O'z muxbirimiz.

## Erkin muallimning haqiqatlari

**Shu kunlarda o'zining 80 yoshini qarshilayotgan Erkin Qosimov o'z hayot yo'li orqali halol yashash, boshqalar og'irini yengil qilish, barcha bilan samimiy munosabatda bo'lish odamga qanchalik obro'-e'tibor, izzat-hurmat keltirishini isbotladi.**

Samarqand shahridagi 22-o'rta maktabni bitirgach, Erkin Qosimov jismoniy tarbiya pedagogikaga bilim yurtiga o'qishga kirdi. Bilim yurtidagi tahsilni tugatib, shahardagi 9-o'rta maktabga jismoniy tarbiya o'qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilindi. Uning bundan keyingi pedagogik faoliyati shu o'quv dargohi bilan bog'landi va pensiyaga chiqquncha ushbu maktabda ishladi.

Erkin aka ishga jiddiy yondashdi, jismoniy tarbiyaning inson sog'lig'i uchun qanchalik muhimligini o'quvchilarga tushuntirishga intildi. Bunda asosiy e'tiborni yoshlarni, ularning qiziqishi va imkoniyatlariga qaratib, sportning har xil turlariga jalb qilish, mehr uyg'otishga qaratdi.

Maktabda futbol, shaxmat-shaxka, voleypol, basketbol va boshqa sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etdi. Bunday mehnat natijasida o'quvchilar turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Ular orasida sport ustalari, faxriy unvon sohibalari ham borligi Erkin akaning yutug'i edi.

Mazkur zahmatli mehnatlar bejiz ketmadi. 1987-yilda Erkin aka "O'zbekiston sport murabbiysi" diplomini oldi, "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi.

Bulardan tashqari, E.Qosimov pedagogik faoliyatini jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib bordi. O'zi yashab turgan G'afur G'ulom mahallasining issiq-sovug'idan doim xabardor edi. Shu sababli mahalla ahli uni mahalla raisi lavozimiga saylashdi. Erkin aka oz emas-ko'p emas, 23 yil mahallaga bosh bo'ldi. 2001-yildan boshlab yana 6 yil mahalla kotibi vazifasini bajardi, mahalla obodonligi, aholi totuvligi yo'lidagi zahmat chekdi.

E.Qosimovning ajoyib oilasi bor. Turmush o'rtog'i Gulshara Hamroqulova 35 yil Samarqand shahridagi 3-o'rta maktab o'quvchilariga tarix fanidan saboq berdi. Hozir pensiyada bo'lsa ham, tinib-tinchimaydi. Ularning to'rt o'g'il va bir qizi turli sohalarida mehnat qilib kelmoqda.

Ayni paytda Erkin ota va Gulshara ayalari 20 nafar nevara va 10 nafar evara qurshovida qarilik gashtini surmoqda.



Shu kunlarda o'zining 80 yoshligini nishonlayotgan E.Qosimov ayrimlarga o'xshab halovatini uyda cho'zilib yotishda, deb bilmaydi. Mahalladagi to'y-ma'rakalar, marosimular hamisharlar Erkin otasiz o'tmaydi. Mahalla fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchisi, "Keksalar maslahati" guruhi raisi sifatida olib borayotgan ishlari ham tahsinga sazovor. U kishining tashabbusi bilan "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyiliga muvofiq, "Keksalar maslahati" guruhi mahallaning yoshlar yetakchisi bilan birgalikda uyushmagan va muammoli yoshlardan o'n nafari haqiqiy yashash tajribaga ega bo'lgan, zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniydirlariga birkirtdi.

Mahalladoshlar ta'biri bilan aytganda, "Erkin muallim" do'stlar davrasida o'zini sodda va samimiy tutadi. Shu sababli uning do'stlari ko'p. O'ziga nimani ravo ko'rsa, o'zgalarga ham shuni istaydi. Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi hikmatlariga amal qiladi: "Nekim o'z qoshingda erur noravo, Ulusqa oni ko'rma aslo ravo".

Shunday xushmuomalik, odamiylik, samimiylik boy hayotiy tajribaga ega Erkin muallimning haqiqatlarini tashkil etadi. "Yashashdan maqsad ham yaxshilik bilan nom qoldirish emasmi?", deydi muallim o'zaro suhbatlarimizda.

Ana shunday insoniy fazilatlariga ega zamondoshlarimiz bizning boyligimiz, faxrimiz desak, xato bo'lmaydi. Yaxshilar ko'psin. Chunuki "Yaxshilar tufayli dunyo barkamol..."

**Olímpjon G'AFUROV, Samarqand shahar G'afur G'ulom mahallasi raisi. Toshpo'lat RAHMATULLAYEV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Ilyosov Shavkatga (2021-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani O'rtashik mahallasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Sinkova Valentina Sergeyevna (2022-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-"J" uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz

Azamatovich notarial idorasida marhum Qodirov G'olib Xamdovichga (2023-yil 22-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Raxmatov Aminjon (2021-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-"B" uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Umarov Boshmanga (2022-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan me-

rosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasida marhum Bara-tov Maxsumga (2017-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Hakimov Amonga (2020-yil 24-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga

murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasida marhum Umarov Sheraliyon Jalolovichga (2022-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

**BEKOR QILINADI**

Samarqand tumanidagi "SHAFOAT SAVDO BARAKA" oilaviy korxonasi (STIR: 300885609) qarashli Samarqand tumani "Motrid MMTP" agrofirmasi hududi yer xaritasining 240-konturida joylashgan yengil blok va qabr toshlari ishlab chiqarish sexining kadastr hujjatlari to'plami (2015-yil 1-iyulda berilgan, kadastr raqami 14:12:04:01:07:0076:0003) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "EGAMOV'S GRAND BUILD" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309394975) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi "MIRZOMUROD ELMUROD AKOBIR" fermer xo'jaligining (STIR: 302302151) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

### TOPGANGA MUKOFOTI!

Past Darg'om tumanidagi 1-o'rta maktabdan 1997-yilda Yakubov Firdaus Omonovich nomiga berilgan tayanch ma'lumot to'g'risidagi guvohnoma Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99897-439-00-29.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti jamoasi tarix fanlari nomzodi, dotsent **Negmat TOSHKENBOYEV**ning vafoti munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga hamdarlik bildiradi.

**O**naizorini tuproqqa qo'yib kelganidan buyon Akmalning chiroyi ochilmaydi. Sho'x-shodon, o'ynab-kulib yuradigan yigit o'ychan va mayus bo'lib qoldi. Nasibaning xavotir bilan "Dadasi, sizga nima bo'ldi?", degani ham qulog'iga kirmaydi. Nahotki, onasidan bir umrga ayrilgan bo'lsa, ishongisi kelmaydi.

bilan bahslashganday chiril-layotgan chigirtkalarning ovozigina buzardi. Onasi tirikligida diydoriga to'yaganidan Akmalning ichi kuydi. Vaqti qazosi yetib, onasi bir kuni bu dunyoni tark etishi xayoliga kelibdi, deysizmi. Chuqur xo'rsindi. Shu ish, ul-fatchilikdan ortib, birpas onasi bilan suhbatlashsa, oyoqlariga bosh qo'yib erkalansa, bo'lmasmi-di? E, voh! Qon bosimi oshib, oyoq-qo'llari qaq-shaganidan zorlanganda do'xtirlarga ko'rsatsa, sanatoriylarga olib borsa, bo'lardi-ku!

Bo'lardi, ammo ona mehridan ko'z'lari o'z halovatini ko'proq o'yladi. Nasiba otasini ko'z'lari to'rt bo'lib kut-gancha biri yerdä, biri bu yerdä dumalab uxlab qolgan o'g'ilchasi va qizchasini joyiga olib, ularni quchoqlab, o'zi ham uxlab qolgan



## ARMON

chon turib ulgurdi ekan. Nasibani uyg'otsa bo'lmasmi-di?  
 - Kel, o'tir, bolam, nonushta qilib ol, ishda toliqib qolasan...  
 Akmal volidasining mehr balqqan chehrasi-

### Hayot manzaralari

### Turmush chorrahalarida

ni ko'z oldiga keltirib, titrab ketdi. U g'amgin xotiralari og'ushida qayta uxlay olmadı. To'shakda og'ir bemordek ingranib, u yoqdan bu yoqqa ag'anaganicha tong ottirdi.

Nasiba ertalab nonushta tayyorlar ekan, erining so'lg'in yuzi, kirtaygan ko'zlarini ko'rib, xavotirlandi.  
 - Nima, tobgingiz yo'qmi, dadasi, rangingiz bir ahvol?  
 - Tuzukman, shunchaki, yaxshi uxloлма-dim. Ishga kechikmayin.  
 - Choyingizni ichmaysizmi?  
 - O'zlaring ichaveringlar, negadir ishtaham yo'q.  
 Akmal mashinasini o't oldirib, ko'chaga chiqardi, oynani tushirib, ortiga, darvozaga qaradi. "Ehtiyot bo'lib, bolam, yaxshi borib kelgin, ko'p kechga qolmagin", deb duo qilib, kuzatib qoladigan mushtipar onasi endi yo'q. Uning ko'z'lari jiqqa yoshga to'lib, rulni changallaganicha yig'lab yubordi: "Nega jon omonat, umr g'animat ekanligini unutilib qo'yamiz, nega? Onajonim-a, onajonim, meni kechiring!".

Tog'aymurod SHOMURODOV.

### O'qing, qiziq

## MUVAFFAQIYATSIZ TADQIQOT YOXUD FIRIBGAR OLIMLAR TAJRIBASI

**O'RTA YER DENGIZI PARHEZI - UZOQ VA BAXTLI HAYOT**  
 Ilmiy natijalarni rad etishning hammasi ham dastlabki, shov-shuvli va shu bilan birga, noto'g'ri xulosalar kabi e'tiborni jalb qila olmaydi. "Retraction Watch" da aylilgan yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish uchun O'rtä yer dengizi parhezining afzalliklariga bag'ishlangan og'ko'p keltirilgan ilmiy maqola shunday hech kimga bilintirmay bekor qilindi.

Gap yangi sabzavot, meva, sut mahsulotlari, yong'ov va zaytun moyiga boy bo'lgan eng mashhur parhez haqida. O'rtä yer dengizi parhezı va yurak-qon tomir kasalliklarini bog'laydigan tadqiqotda 7000 dan ortiq kishi ishtirok etdi. Ammo keyinchalik parhez ta'sirini yanada obyektiv baholash imkonini beruvchi sinov tamoyillari-ning buzilishi aniqlandi. Masalan, ayrim ishtirokchilar orasida yurak xastaligiga kamroq genetik moyillik bo'lgan.

Soxta fanga qarshi kurash bo'yicha butun tashkilot va komissiyalar ilmiy nashrlarni tekshirish bilan shug'ullanadi. Yuzlab yozilmagan qoida va konvensiyalar mavjud, ammo oxir-olib hamma narsa ma'lum bir tadqiqotchining axloqiy va shaxsiy me'yorlariga borib taqaladi.

### YURAK ILDIZ HUYAYRALARI KASHFIYOTCHISI

Pero Anversa yurakdagi ildiz (c-kit musbat) hujayralari kashfiyotchisi sifatida mashhur bo'ldi. Uning birinchi tadqiqoti 2001-yilda Nature jurnali da nashr etilgan va regenerativ tibbiyotda inqilob qilganini da'vo qilgan. Anversning chop etilgan maqolasiga ko'ra, c-kit hujayralari katta yoshdagilar yurak mushaklarini yiliga taxminan yetti foizga yangilaydi. Ammo ko'rsatkich nafaqat boshqa tadqiqotlar ilmiy natijalariga mos kelmasdi, balki ulardan sezilarli darajada oshib ketdi. Olim Garvard universiteti professori sifatida e'lon qilgan 55 ta maqoladan komissiya soxta natijalar topilgan 31 ta maqolani qaytarib olishni tavsiya qildi.



Internet ma'lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.

### SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

- 8-IYUL**  
**Qo'chqor QARSHIYEV** - (1923-1945) Ishtixon tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi.
- 9-IYUL**  
**Bekmurod YO'LDOSEV** - (1947-2017) Paxtachi tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.
- 10-IYUL**  
**Toshpo'lat TUGALOV** - 1964-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari.

# QAHRAMON BO'LISH UCHUN NIMA QILISH KERAK?

Itimoiy tarmoqlarda ko'p qavatli uyning derasidan tushib ketgan qizaloqning hayotini saqlab qolgan maktab bitiruvchilari haqida o'qib, ta'sirlandim. Bugungi kun qahramoni sifatida e'tirof etilayotgan bu yoshlarning jasoratini har qancha olqishlasak, arziydi. Xo'sh, ularning o'rnida siz bo'lganingizda, nima qilgan bo'lar edingiz? Qahramon bo'lish uchun faqat kimningdir hayotini saqlab qolish kerakmi?

Nazarimda har birimiz har kuni qahramonlik qilamiz. Kimdir ko'proq, kimdir esa kamroq. Qahramonlik bolalar yoki keksalarni serqatnov ko'chalardan o'tkazib qo'yish, jamoat transportida joy berish yoki shunchaki, atrofimizdagilarga samimiy va mehribon bo'lish orqali ham namoyon bo'ladi. Zero, biz uchun tosh bosmaydigandek tuyuladigan har bir yaxshi amalmiz ki mlarningdir taqdiri-ni o'zgartirishi, balki hayotini saqlab qolishi mumkin. Qaytar dunyo, deb bejiz aytishmaydi, axir. Siz bugun kimgadir yaxshilik qilsangiz, ertaga u ham sizga yoki boshqa bir insonning joniga oro kirishi turgan gap.

Shunday xayol bilan ijtimoiy tarmoqni kuzatishda davom etaman. Ne ko'z bilan ko'rayki, katta idoralardan birining rahbari yupun kiyingan bir ayol va uning ikki yalangoyoq farzandining orasiga kirilib, ehson sifatida olib kelgan ikkita noni va o'zgina qars-qursini ko'z-ko'z qilib suratga tushibdi. Suratdagi ayol va bolalarning o'ng'aysizlanib, yuzini kameradan yashirishga urinayotganidan

anglash mumkinki, bu ehsonning badali ularning g'ururini toptamoqda. Xo'sh, buni qahramonlik deb bo'ladingi? Ota-bobolarimiz o'ng'ing berganini chap qo'ling bilmasin, deb bejizga aytishmagan. Amaldorlar ko'z-ko'z qilayotgan "ehson"ini o'z cho'ntagidan qilayotgan bo'lsa ham mayli edi, aslida kam ta'minlanganlarga yetkazilayotgan moddiy yordamjetidan asosiy qismi davlatjetidan yoki maxsus jamg'armalardan ajratilyapti-ku.

Xullas, kimnidir kamsitib yoki qilgan amalini ko'z-ko'z qilib qahramon bo'lib bo'lmaydi. Yuqorida tilga olingan, 4 yoshli qizaloqni qutqarib qolgan yoshlar bu ishni mashhur bo'lish uchun qilishgan deb o'ylaysizmi? O'sha vaqtda mashhurlik-ni o'yilashga fursat ham bo'lmagani turgan gap. Ular vijdoniga quloq tutdi, xolos. Shunday ekan, biz ham vijdon bilan hisoblashaylik. Beg'araz yaxshilik qilishni bugundan, shu ondan boshlaylik.

**Adiba URUNOVA,**  
**SamDCHTI xalqaro**  
**jurnalistika yo'nalishtalabasi.**



**Hulkar To'ymanova Qo'sh-rabotda tug'ilgan. O'zbekiston milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlab, avval tuman hokimligining "Istiqlol sari", keyinchalik respublika o'qituvchilarining "Ma'rifat" gazetalarida mehnat qilgan. 2009 yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" unvoni bilan taqdirlangan. H.To'ymanovaning "Yaxshi tilaklarga beshikdir dunyo", "Yeru osmon o'rtasida", "O'zbekona xislat" kabi publitsistik asarlari, "Changda qolgan gul", "Asal oyi" nomli hikoyalari to'plami nashr etilgan. Faxriy jurnalist ayni paytda "Guliston" va "Teatr" jurnallari birlashgan tahririyatining bo'lim muharriri sifatida ijod qilmoqda.**

Xiyobon biqinidagi mehmonxonaga yaqinlashganida, Halima yerdä yotgan pul o'ramini ko'rib qoldi: dollarimi? Yo tavba! Yo'qotganing holi ne kechdi? Sellofanning sirtidan rezinka o'ralibdi, qisqasi, bir o'ram pull...

Ayol yon-atrofiga qarab, pulni engashib olishga ulgurmasdi. Yerdan chiqdini, ko'kdan tushdini, qarshisida ko'z'lari olazarak, nafasi og'ziga tiqilgudek bo'lib so'zlayotgan lo'libashara yigit paydo bo'ldi:  
 - Iye, kennoyi, Xudo siz bilan bizga yo'q joyidan berdi. Allohning qudratini qarang! Birorta chet ellik yo'qotib qo'ygan bo'lsa kerak. Bo'lishib olamiz. Qarang qalinligini, ichida kim bilsin, qancha dollar boriykin!  
 Halima hayratomuz nigohini haligi kishiga qaratganicha, kalovlanib qoldi. Birovning puli - bironing haqi, buyurarmi-di? Qo'lini siltab ketvoray desa, sherigining qo'yvoradigan turi yo'q:  
 - Yuring, nariroq boraylik, birovi ko'rib qolmasin! La'nati turistlar puli ko'pligidan keladi-da bizzi yurtlarga, topib olganimiz ularga urvoq ham emas. Hozir mundaq qilamiz, siz pulni olib ketuvrasiz. Man orqangizdan yetaman!  
 - Qandoq bo'larkin? - Halima "xazina" o'ziga oshirilyotgani uchun dam ishonqiramay, dam ikkilanib yo'lovchiga qaradi.  
 - Qandday bo'ladi-da, qo'rqmang. Yuring, chetroqqa o'taylik. Pulni sumkangizga soling, - u shunday deb, qarshilik qilishiga qaramay, "o'lja"ni ayolning sumkasiga tiqdi. Halima beixtiyor hamrohiga ergashdi. Yigit yon-atrofga o'g'rincha nigoh tashlab, ayolni xiyobonning ovloqqa, kimsasiz joyiga yetakladi. U kimningdir puli sumkasiga tushganini hazm qila olmas, tasodifan hoziru nozir bo'lgan bu nusxaning nima uchun o'zini bu yoqqa boshlab borayotganiga aqli yetmasdi.  
 - Kennoyi, bo'lmasa, mundaq qilamiz. Siz pulni olib ketuvrasiz, men orqangizdan yetaman. Metroning oldida meni kuting, yarim soatlarda boraman. Ammo bilasizmi, buning uchun siz menga uzuklaringizni garovga berishingiz kerak. Uchrashganimizda sizga bularni albatta, qaytaraman. Har qalay ishonchliroq bo'lardi-da. Qo'lingizdagi pulga, eh-he, qancha tilla uzuk keladi.

Tavba, nimalar deb valdirayapti bu ahmoq? Kimniki bo'lishidan qat'i nazar, axir, uni bir odam tushirib qoldirgan, bironing haqi o'ziga yuqarmidi? To'g'ri, qanchadir ana shu valyutaga istagan taqinchog'ini xarid qilishi mumkin, ammo u nohalol, o'g'irlangan buyum bo'lmaydimi? Eh, Halima, Halima, qayoqdan ham duch kelib qolding bu mashmashaga? Soddaligiga bordini, ishonuvchanlik qildimi, shayton vasvasasiga uchdimi, u ikki qo'lidagi ikki uzukni yechib, qarshisida jilpanglayotgan so'xtaga uzatdi.  
 Bir payt ularga qarab yugurib kelayotgan novcha, qotma yigitni ko'rdi-yu, sherigi sarosimaga tushdi. Halimaning rangidan rang qolmasdi. "Pulning egasi!" degan fikr o'tdi miyasidan. Boshi baloga qolmasa, go'rga edi? Pulni mana bu firibgarga qaytarib bermochqi bo'lib, sumkasini titkilay boshladi:  
 - Uka, menga hech narsa kerak emas. Oling, meni tinch qo'ying!

- To'xtang, voy, unaqasi ketmaydi, uni o'zim tinchitaman. Siz yo'ldan qolmang! U pulning egasi bo'lishi mumkin, da'vo qilgan taqdirda ham menda uning puli yo'q. Shu uchun siz chaqqonroq harakat qilib, ko'zdan uzozqlashishingiz kerak. Tag'in gumonsirab yurmang, agar ikkalimiz birga ketsak, pul yo'qotgan odam ketimizdan tushadi. Ishkalni ko'paytirishning nima keragi bor?  
 Yugurganidan o'pkasi og'ziga tiqilgudek hansirayotgan yigit chet tilida nimalardir deb g'udrana boshladi. Qiyyin-qistovga olingan Halima bu paytda ulardan ancha

# Yo'lda

biroqlashib bo'lgan edi. Qutulgani rost bo'lsin-a, anavi ajnabiy bilan sherigi ne ko'yilarga solmasdi uni? Juvon shu darajada qaltirardiki, ortiga qayrilib qarashga yuragi betlamasdi. Qorasi o'chsin ikkisining ham. Pulni ham boshidan ordona qolsin! "Afsus, tilla buyumlarimni bekor yechib berdim-da... Odamning bir yelkasida rahmon, bir yelkasida shayton o'tiradi, degani shu-da. Shayton vasvasasiga uchdim. Xudo biladi, oldimga qaytib borishini!", deya o'zini tinchlantirishga urindi ayol.

...Metro bekati-da ikki soatcha u yoqdan-bu yoqqa yurib, kelishga va da qilgan haligi kishini kuta-kuta Halimaning toqati toq bo'ldi. Ko'ngli g'ash, bir-biriga zid turli savollar qiyndi uni: "Nega zeb-ziynatlarimni notanish odamga yechib berdim? Shu darajada ahmoq bo'ldimmi? Yo'limdan qolmasligim kerakmi? Vijdonisizlarga qo'shilib, nima ish qilib qo'ydim o'zi? Ikki firibgar til birkirib, meni chuy tushirgan bo'lsa-chi? Yo'g'-e, axir pulni o'zi olmadi-ku, menga ishonib berdi-ku, unaqa emasdirmi?"

Ayol vazmin qiyofada ishxonasi tomon odimladi. Keldi-ketdini nazorat qiluvchi xodimga uzrli sabab bo'lib qolganini aytib, ish stoliga xomushgina cho'kdi. Qo'li ishga borarmidi? Ko'z oldidan xiyobonda sodir bo'lgan noxushlik sira ketmasdi. Bu odbon "pishitilib", avvaldan rejalashtirilgan ishga o'shardsi. Telefon jiringlashi bilan qulog'i ding, mabodo uni so'rab qolarmikan? Uzukni garovga olgan odam Halimaning ishxonasi telefon raqamini yozib olgan, pul egasi bilan orani ochiq dilsam, sizga zudlik bilan qo'ng'iroq qilaman, degani damba-dam ko'nglidän o'tardi.

Halima bir amallab kunni kech qildi. Xonadoshlari oxiriga yetkazgan hisobotni u ertaga tayyorlaydigan bo'ldi. So'nggi pushaymon, o'zingga dusman. "Nima qilarding, Halima, shu pulni olib? Basharasiga otib, qochmaysanmi? Uzuklaringdan umid qilmay qo'ya qol, endi. Nahotki, kap-katta ziyoli bir ayol qalloblarga ishonib o'tirsa? Axir, "Meni tinch qo'ying, ana shu pul sizga siylov" deb qochib qolsam, birovi meni sudga sudrarmidi? Eh, shu darajada go'limisan, Halima?" U xayolidan takror-takror o'tayotgan savollarni tiliga chiqara olmasdi. Kimga, nima deb so'zlab bersin? O'zini o'zi sharmanda qilmaydimi? Axir, qolipidan ko'chgan g'ishti-ni qaytadan o'rniga qo'yishning iloji yo'q-ku?

Yagona taskin va ilinj - sumkasidagi pul. Butun vujudini cho'g'day kuydirayotgan ana shu matoh qo'liga tushmay qo'ya qolsa, qani edi? Och qorinim, tinch qulog'im, deb ketaversa, hozir uyida bejavotirgina o'tirgan bo'lardi? Ammo huzur-halovatidan ayrgan bu zormanda endi unga tegishli, xohlasa, qimmatbaho zeb-ziyinat sotib olsin, xohlasa, kiyim-kechak, hech kimning e'tirozi yo'q. Bu haqda biron biling, biron bilmasin, mavhumligicha qolsin, bironvga aytgulik gap emas. Na eri, na bolalariga lom-mim demaydi. Qo'ldan ketgan uzuklarining o'rniga boshqasini xarid qilib olsa bo'ldi, unga hech narsaning keragi yo'q.

Ayol kechki ovqatdan so'ng televizor tomosha qilib o'tirgan oila a'zolari davrasini tark etdi. Yotoqxonaga kirib, sumkasini titkiladi. Yuragi qinidan chiqqudek urar, mo'jiza sodir bo'ladigandek qo'llari qaltirardi. Ha, mana, topilma sumkasining tagiga tushib ketgan ekan. Halima rezinkani yechib, sellofan paket ichidagi pulni chiqardi-yu, dahshatdan qotib qoldi: ne ko'z bilan ko'rsinki, bir dollarning ichiga bor-yo'g'i to'rt ming so'm pul ustalik bilan o'ralgan edi.

Halimaning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi...  
**Hulkar TO'YMANOVA.**

**MATBUOT UYI**  
**Zarafshon**  
 Самаркандский Вестник

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 420 nusxada chop etildi. Buyurtma 371. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2.

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonä manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**X.ERNAZAROVA.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda